

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

ELEKTRON ODIL SUDLOV: HOZIRGI TENDENSIYALAR VA XORIJIV TAJRIBA

Sultonov Mahmudbek Xikmat o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi huquqi yo‘nalishi
magistranti

mahmudsultonov9999@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda elektron odil sudlov faoliyatining tashkil etilishi sud ishlarini yuritish jarayonini sezilarli tarzda tezlashtirishi, sudlarning ish hajmini kamaytirishi, sud tizimining shaffoflik darajasini oshirishi, fuqarolarning sudlov jarayonida ishtiroy etishini osonlashtirishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, kiber-sudlar, avtomatlashtirish, videoyozuv, aqli sudlar, video-konferensiya, audio-bayon.

Mutaxassislarining ta’kidlashicha, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali sud tizimini axborotlashtirish hozirgi davrda odil sudlovga ega bo‘lish darajasini va shaffofligini oshirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ular sud jarayonining turli bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan byurokratik, takroriylik, ortiqcha sarflanadigan mehnat, vaqt, moliyaviy va iqtisodiy xarajatlarni sezilarli miqyosda kamaytirish imkoniyatini berishi mumkin. Bu ham sudyalarga, ham sud jarayonining ishtiroychilariga tegishli hisoblanadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik rivojlangan davlatlar zamonaviy raqamli texnologiyalarni sud jarayoniga joriy etishning afzalliklarini tushungan holda, odil sudlovnvi amalga oshirishga eng yangi interaktiv texnologiyalarni jadal joriy etib, o‘z sud tizimini takomillashtirmoqda. Xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, elektron odil sudlovnning afzallikkari quyidagilardan iborat:

- sud jarayonining turidan, ishning toifasi va instansiyasidan qat’i nazar da’vo arizalari va boshqa hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish imkoniyati. Xorijiy mamlakatlarda hujjatlarni elektron shaklda topshirish tizimidan foydalanish sud ishlarini ko‘rib chiqish muddatini ancha qisqartirdi;
- sud majlislarini veb-konferensiya tizimi orqali onlayn tarzda to‘laqonli o‘tkazish mumkinligi;
- ish materiallari va dalillar bilan elektron shaklda masofadan tanishish mumkinligi. Jumladan, belgilangan tartibda skaner qilingan bosma hujjatlar, shuningdek, sud majlislarining audioyozuvlari bilan tanishish imkonii ham beriladi;
- Internet tarmog‘ida barcha daraja va bo‘g‘inlardagi sudlar qarorlarining matnlari ochiq joylashtirilishi;
- ishlarni ko‘rib chiqish muddatlari va natijalarini (ko‘rib chiqilgan millionlab ishlarning materiallarini sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida tahlil qilish asosida) prognoz qilish xizmati mavjudligi;
- sud majlislarining audioyozuv shaklidagi bayonnomasini tayyorlash xizmatidan foydalanish;
- sud apparati funksiyalarining avtomatlashtirilishi (nizo taraflarini xabardor qilish, xabarlarni tarqatish va hokazolar).

Shunday qilib, sudlov jarayonini umumiyl tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Birinchidan, yangi texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan, sudlarga huquq va erkinliklarini himoya qilishni talab qilib berilayotgan murojaatlar soni ko‘payib borayotgan, shuningdek, kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelayotgan sharoitda sud organlarining ish hajmi ancha oshadi. Buning natijasida odamlar, hatto sudga murojaat qilish uchun rasmiy imkoniyati bo‘la turib, odil sudlovdan foydalanish imkoniyatidan amalda mahrum bo‘ladi. Sudlov

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

jarayonining yangi, zamonaviy, arzon usuli sifatida raqamli odil sudlovdan foydalanish sud himoyasida hamda huquq va erkinliklarni himoya qilishda bir qator afzalliklarga ega;

- Ikkinchidan, AKT rivojlanishining hozirgi darajasi bizga sud tizimini axborotlashtirish haqida odil sudlovni sifatlari ta'minlashning ancha samarali va istiqbolli usullaridan biri sifatida gapirish imkonini beradi. AKTning joriy etilishi sud ishlarini yuritishni tezlashtirishi, sud xodimlarining ish hajmini kamaytirishi, tartib-taomillar qiymatini (prosessual xarajatlarni) kamaytirishi, sud tizimining ochiqligi darajasini oshirishi mumkin va h.k. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga qaraganda, Buyuk Britaniyaning o'zida 2023-yildan boshlab, har yili 2 mln. dan ortiq ishlar real sud zallaridan tashqarida ko'rib chiqiladi, shuning evaziga davlat taxminan 244 mln. Funt sterling tejalishiga erishadi.

- Uchinchidan, axborot texnologiyalarini joriy etish, u birinchi navbatda, sud jarayonining turli bosqichlariga xos bo'lgan takroriy, ovoragarchilik jarayonlarni amalga oshirish uchun vaqt va mehnat sarfini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan natijalarga erishishning eng muhim vositasi – sud tizimidagi barcha sud hujjatlarini to'ldirishning onlayn tizimini joriy etishdir. Bunday tizimning joriy etilishi kerakli hujjatlarning shakkllari, ularni to'ldirish bo'yicha ko'rsatmalar va zarur harakatlar algoritmlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi; ulardan foydalanish yuridik ma'lumoti bo'lмаган shaxslarga o'z talablarini anglash, sudga murojaat qilishning narxi va maqsadga muvofiqligini baholash, buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha aniq-lo'nda yo'rqnomalari olish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli odil sudlovni amalga oshirishni tavsiflovchi belgilar hamda uning afzalliklari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Odil sudlovning raqamlashtirilishi uning hammabopligi oshishiga, shuningdek, ishlarni ko'rib chiqish vaqt qisqarishiga imkon beradi.

2. Odil sudlovning raqamlashtirilishi sud tartibtaomillarini yanada formallashtiradi, odil sudlov "shablon" (qolip)lashib boradi, bu esa sud jarayonining mohiyatiga mos keladi.

3. Bu nafaqat sud uchun, balki protsess ishtirokchilari uchun ham sud jarayoniga sarflanadigan vaqt, mehnat va moliyaviy-iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

4. Raqamlashtirish tegishli infratuzilmani yaratish, sudlar tarkibining ham, aholining ham kompyuter savodxonligini oshirish borasida katta sa'y-harakatni talab qiladi.

Aytish mumkinki, sudlov tizimiga AKTning joriy etilishi sud jarayonining sifatiga va inson huquqlarini sud orqali himoya qilishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli odil sudlov sudyalarga diqqatni o'zlarining asosiy vazifalariga, jumladan asoslangan va sifatlari sud hujjatlarini chiqarishga jamlash imkonini beradi, chunki hujjatlar aylanishi bilan bog'liq ko'plab harakatlar hozir raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoxda. Bu esa sudyalarga istalgan vaqtda sud qarorlari va boshqa zarur materiallar bilan tanishish imkonini bermoqda. Sud hujjatlarini qabul qilish jarayoniga ishda mayjud bo'lgan ma'lumotlar asosida sud qarorining loyihasini ishlab chiqishda yordam beradigan sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etila boshlandi.

Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi, shuningdek, fan-texnika taraqqiyotning rivojlanishi odil sudlovning hammabopligini va sifatini hamda fuqarolarning ishonchini ta'minlash sohasida mayjud muammolarning yangi yechimlarini izlash, sud tizimi faoliyatining maksimal shaffofligiga erishish imkonini berdi. Bunday yechimlardan biri sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va kengaytirish, elektron sudlovni shakllantirishdir. Elektron odil sudlov (inglizcha – e-Justice; o'zbekcha – E-sudlov) – sudlovni amalga oshirishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan usullaridan biri. Odil sudlovda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalligi – sud jarayonining shaffofligi, ochiqligi va hammabopligi, binobarin – inson huquqlari va erkinliklarining eng yaxshi tarzda himoyalanishidir.

Ba'zi mamlakatlarda yaratilgan va asosan IT-texnologiyalar, mualliflik huquqi, xalqaro savdo kabi sohalarda qo'llanilayotgan "kibersudlar", "aqli sudlar", "elektron sudlar" yaxshi

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON,2024

natijalar beryapti. Eng yangi raqamli texnologiyalar inson huquqlari va erkinliklari sud orqali yuqoriqoq darajada himoya qilinishini, odil sudlovning hammabopligi, qonuniyligi va adolatlıligini ta'minlash, uning samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. O'zbekistonda infratuzilmani takomillashtirib, sudyalar va fuqarolarga AKT asoslarini o'rgatish tizimini yo'lga qo'yib, sudlov tizimiga AKTning joriy etilishini jadallashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagি PQ – 1730-sон qarori //O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2017-y., 07/17/3415/0345-son. <https://lex.uz/docs/1986827>.
2. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF – 6079-sonli farmoni. www.lex.uz.
3. Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ – 4996-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.02.2021-y., 07/21/4996/0127-son.
4. Аватар вместо мантии: какое будущее ждет судебную систему в эпоху инноваций //Российская газета,(30.01.2020). [URL:https://rg.ru/2020/01/30/avatar-vmesto-mantii-kakoe-budushchee-zhdet-sudebnuiu-sistemu-v-epohu-innovacij.html](https://rg.ru/2020/01/30/avatar-vmesto-mantii-kakoe-budushchee-zhdet-sudebnuiu-sistemu-v-epohu-innovacij.html).
5. Набиев А.У. Цифровое правосудие в нынешних условиях Республики Узбекистан // StudNet, 2021. – №4.
6. Система электронного судопроизводства Узбекистана e-sud в числе финалистов VI-Всемирного форума правосудия. [URL:https://sud.uz/ru/sistema-elektronnogo-sudoproizvodstvo](https://sud.uz/ru/sistema-elektronnogo-sudoproizvodstvo).